

# TASVIRIY SAN'AT

Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining  
3- sinfi uchun darslik

Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

**TOSHKENT**  
**«YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE»**  
**2019**

### Mualliflar:

M.ISOQOVA, R.HASANOV, B.HAYDAROV,  
A.SULAYMONOV, S.JUMANIYOZOVA, B.AZIMOV

**Taqrizchilar:** R.Xudayberganov – O’zbekiston xalq rassomi, K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori.  
G.Zulhaydarova – Respublika ta’lim markazi metodisti.  
A.Salixova – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 159- umumiy o’rta ta’lim maktabining tasviriy san’at fani o’qituvchisi.  
Z.Hoshimova – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 16- umumiy o’rta ta’lim maktabining tasviriy san’at fani o’qituvchisi.

### SHARTLI BELGILAR:



— faollashtiruvchi savollar va topshiriqlar



— amaliy mashq va topshiriqlar



— qiziqarli topshiriqlar



— takrorlash uchun savol va topshiriqlar



— o’rganish va yodda tutish zarur



— uyga berilgan topshiriqlar



— iqtidorli bolalar uchun topshiriqlar




— dars tugadi

**Respublika maqsadli kitob jamg’armasi  
mablag’lari hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-5710-7-5 © «Huquq va Jamiyat», 2008, 2010, 2014, 2016. 2019.  
© M.Isoqova, S.Jumaniyozova, 2010, 2016. 2019.

## I CHORAK



G'. Abdurahmonov. *Oqtoshdagi buloq*.

**Bu chorakda siz:**


- kontrast ranglarni va ulardan foydalanishni;
- naturaga qarab rasm ishlashni;
- to'rtburchak shakldagi naqsh ishlashni o'rganasiz;
- amaliy san'at ustalari, rassomlar va haykaltarosh-larning ijodi bilan tanishasiz;
- turli mavzularda haykal va rasmlar ishlaysiz.



## 1

**«MUSTAQIL ONA VATAN»  
MAVZUSIDA RASM  
ISHLASH**

O'zbekiston — mening Vatanim. Unda bizning ajdodlarimiz yashab kelganlar. Hozirda biz uning musaffo havosidan nafas olib, zilol suvlaridan ichib, dalalarida yetishtirilgan nozne'matlaridan bahramand bo'lmoqdamiz.




Mustaqil Vatanimizning o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasi bor. Yuqoridagi rasmida Vatanimiz poytaxti — Toshkentdagi Mustaqillik maydonida o'rnatilgan haykallar kompozitsiyasini ko'ryapsiz. Bu kompozitsiya «Ezgulik monumenti» deb ataladi.



1. Bu haykallarning qanday ramziy ma'nolari bor?
2. Ular haqida gapirib bering.



O‘zbekiston zamonaviy shaharlari, fayzli qishloqlari, adir-u tog‘lari, serhosil bog‘lari bilan go‘zal. Rassomlar ularni o‘zgacha ilhom bilan tarannum etadilar. Rassom G‘ofur Abdurahmonovning «Tog‘lar» nomli asarida tog‘larda kuz manzarasi mahorat bilan tasvirlangan.



G‘.Abdurahmonov. *Tog‘lar*.

Mustaqillik yillarida aholimiz va xorijlik sayyoohlar uchun turli xiyobonlar, dam olish maskanlari bунyod qilindi.



1. Rasmlar asosida Vatanimiz tabiatini haqida so‘zlab bering.
2. Siz Ona Vatanimizni qanday tasvirlashni istaysiz?





Go'zal tabiat manzarasi.



1. Yuqoridagi rasmda qanday ko'rinish tasvirlangan?  
U haqda gapirib bering.
2. Bayram kayfiyatı qanday ranglarda tasvirlanadi?



Endi yuqoridagi rasmlarda kuzatgan manzarlarni eslab «Mustaqil Ona Vatan» mavzusida rasm ishlangu.




### **“Mustaqil Ona Vatan” mavzusida rasm ishlash bos-qichlari:**

1



Tasvir o'lchamlarini belgilash

2



Tasvirni xomaki ishlash

3



Tasvirni qalamda yakunlash

4



Rasmni rang bilan yakunlash




1. «Mustaqil Ona Vatan» mavzusida ishlanayotgan rasmni oxiriga yetkazing.
- 2\*. «Mustaqillik bayrami» mavzusida rasm ishlangu.



2

## ATLAS MATOSIDAN NAQSH NAMUNASINI KO'CHIRISH



O'zbekistonimiz o'zining atlas matolari bilan mashhur. Ulardan turli-tuman kiyim-kechaklar tikiladi. O'zbekiston atlaslari rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularda ranglar jilosи aks etgan.



1. Yuqoridagi rasmlarda tasvirlangan atlas matolardagi shakllarga va ranglar jilosiga e'tibor bering.
2. Matolarda ishlatilgan ranglar nomini aytинг.
3. Atlasda qo'llanilgan ranglarning kontrastliligi, shakllarning tuzilishini tahlil qiling.



## Ranglar halqasi.



## Ranglar hosil qilish usuli.

Turli rangdagi bo'yoqlarni o'zaro aralashtirib yangi rang hosil qilinadi. Ular atlas matosi uchun rang tanlashda qo'llanishi mumkin. Atlas matosi uchun eskiz ishlash uchun imkonи boricha guash bo'yoqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki guash bo'yog'i yuzani qoplash xususiyatiga ega. Akvarel bo'yoqlar esa shaffof bo'lgani sababli aniq ranglar hosil qilishi uchun bir necha marta rang berish lozim bo'ladi.

## Akvarel bo'yoq bilan ishlash.



Birinchisi qurimasdan surtilgan bo'yoq o'zaro aralashib ketadi.



Birinchisi qurigandan keyin surtilgan ikkinchi bo'yoq o'zaro aralashmaydi.




Bo'yoqqa qanchalik ko'p suv aralashtirilsa, u shuncha och tusga kirib boradi.






### Ranglarni hosil qilish.



Yuqoridagi ko'rsatmalar asosida turli ranglarni hosil qiling va ulardan atlas kompozitsiyasida foydalaning.




1




«Tumor» nusxali xonatlas

2



«Namozshomgul» nusxali xonatlas

3



«Chaqirim tabdili» nusxali xonatlas

4



«Qora qarg'a» nusxali xonatlas


1. Yuqoridagi xonatlaslardan qaysi biri sizga yoqadi?
2. Xonataslarda qanday ranglar ishlataligani?






## Atlas matosidan naqsh namunasini ko'chirish bosqichlari:

1



Tasvirni qog'ozga  
joylashtirish

2



Qalamda xomaki  
ishlash

3



Tasvirni qalamda  
yakunlash

4



Rasmni rang bilan  
yakunlash



Yuqoridagi kabi atlas matosidan naqsh namunasini  
ko'chiring.



1. Sinfda ishlangan atlas naqshini yakunlang.
2. Boshqa turdag'i atlas uchun naqsh ishlang.



## 3

2 – 3 MEVALARDAN TUZILGAN  
ODDIY NATYURMORT  
ISHLASH

O'lkamizda oltin kuz o'z sepini yoygan. Bog'larda olma, anor, nok, shaftoli, uzum, anjirlar, polizlarda tarvuz va qovunlar g'arq pishgan.

Kuzda eng go'zal bayramlarimizdan biri, «Hosil bayrami» o'tkaziladi.



«Hosil bayrami» haqida so'zlab bering.




Kuzgi mevalarni rangtasvir ustalari zo'r maroq bilan tasvirlaydilar. Ular ishlagan rasmlar kishiga zavq-shavq bag'ishlaydi. Siz ham mevalardan tuzilgan natyurmort rasmini ishlang.



### **Olma va anordan iborat natyurmort rasmini ish-lash bosqichlari:**

1



Tasvir o'lchamlarini belgilash


2



Tasvirni xomaki ishlash



3



Tasvirni qalamda yakunlash

4



Rasmni rang bilan yakunlash





Olma va anor rasmini o'ziga qarab ishlang.



1. Naturaga qarab rasm ishlaganda tasvir qog'oz yuzasiga qanday joylashtirilishi kerak?
2. Naturaga qarab rasm ishlaganda yana nimalarga e'tibor berish kerak?



1. Sinfda ishlagan rasmingizni oxiriga yetkazing.
- 2\*. «Mevalar» natyurmortini ishlang.



V.I.Ufimsev. *Natyurmort.*

4

«POLIZ EKLNLARI» MAVZUSIDA  
NATYURMORT ISHLASH



O‘zbekiston o‘zining mazali mevalari bilan birga totli poliz ekinlari bilan ham mashhur. Qovun, tarvuz, handalak, qovoq kabi turli poliz ekinlari barchaga, birdek manzur. Ular ko‘rinishi, shakli, rangi, hajmi va ta’mi bilan bir-biridan farqlanadi.



1. Poliz ekinlaridan qaysilarini ko‘p ko‘rgansiz?
2. Ularning ranglari, katta-kichikligi va tuzilishini ayting.



Poliz ekinlari mavzusida rasm ishlang.





Poliz ekinlaridan tashkil topgan natyurmort ishlang.




**«Poliz ekinlari» mavzusida natyurmort ishlash bosqichlari:**

1




Tasvir o'lchamlarini belgilash

2




Tasvirni xomaki ishlash

3



Tasvirni qalamda yakunlash

4



Rasmni rang bilan  
yakunlash





V.I.Ufimsev. *Natyurmort.*

**Ufimsev Viktor Ivanovich** (1899–1964) — O'zbekiston xalq rassomi. U o'zining «Moviy rumkali natyurmort», «Dala gullari», «Baqlajonlar» kabi natyurmortlari bilan mashhur.




1. Sinfda ishlangan «Poliz ekinlari» mavzusidagi rasmni oxiriga yetkazing.
2. Poliz ekinlaridan iborat ixtiyoriy natyurmort ishlang.


5

«OLTIN TARVUZ» ERTAGI  
ASOSIDA RASM ISHLASH


1




2



3



4



1. Yuqoridagi rasmlarda qaysi ertak qahramonlari tasvirlangan?
2. O'zingiz yoqtirgan ertak mazmunini so'zlab bering.



## Oltin tarvuz

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir kambag'al dehqon bo'lgan ekan. Dehqon yer haydayotganida osmonda uchib kelayotgan laylak yiqilib tushibdi. Dehqon laylakni o'z uyiga olib borib, siniq qanotiga taxtakach bog'lab, bir qancha vaqt uni parvarishlabdi. Laylak sog'ayib, uchib ketibdi.


Bir kuni dehqon chigit ekib yursa, laylak pastlab uchib kelib, uch dona tarvuz urug'i tashlab ketibdi. Ma'lum vaqt o'tgach chigit bilan birga tarvuz ham unib chiqibdi...

1. Ertakni davom ettiring.
2. «Oltin tarvuz» mavzusida rasm ishlang.






## «Oltin tarvuz» mavzusida rasm ishlash bosqichlari:




Tasvirni qog'ozga  
joylashtirish



Qalamda xomaki ishlash



Tasvirni qalamda yakunlash





Tasvirni bo'yash

Ertak qahramonlarini tasvirlashda ularning yuz ifodalarini muhim ahamiyatga ega.



### Odamlarning turli xil yuz ifodalarini tasvirlash.



«Oltin tarvuz» ertagi asosida rasm ishlang.




1. Ijobiy va salbiy fe'l-atvorli ertak qahramonlariga misol keltiring.
2. Salbiy fe'l-atvorli qahramon qanday tasvirlanadi?




1. Sinfda ishlangan «Oltin tarvuz» mavzusidagi rasmni bo'yang.
- 2\*. Biror ertakka illyustratsiya ishlang.





Qutlug' Basharov  
(1925—2004)



«Nodirabegim».

**Qutlug' Basharov** — O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi, professor. U portret, manzara, natyurmort, miniatyura va tarixiy janrlarda ijod qilgan. Mashhur asarlari «Spitamen», «Alpomish», «Jaloliddin Manguberdi», «Ibn Sino», «Amir Temur» va boshqalar.

## 6

## HAYKALTAROSHLIK. BALIQ RELYEFINI YASASH



*Haykaltarosh Ilhom va Kamol Jabborovlar. Toshkent shahrida o'rnatilgan Amir Temur haykali.*

Haykaltaroshlik – eng qadimiy tasviriy san'at turlaridan biri. Haykallar tosh, metal, marmar, granit, yog'och, loy, gips kabi materiallardan ishlanadi. Yurtimizning hamma joylarida haykaltaroshlik san'ati namunalarini uchratish mumkin.




1. Buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur haqida nimalarni bilasiz?
2. Yuqoridagi fotosuratda tasvirlangan Amir Temur haykali haqida bilganlaringizni so'zlab bering.
3. O'zingizga ma'lum haykallarni sanab bering.




**Ilhom Jabborov** — haykaltarosh, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi.

U Amir Temur, Al-Farg‘oniy, Jaloliddin Manguberdi, «Ona» kabi haykallar muallifi.



Ilhom Jabborov  
(1945- yilda tug‘ilgan)



I.Jabborov. Al-Farg‘oniy

Haykallar ishlanish uslubiga ko'ra 2 turga bo'linadi: har tomonlama aylanib ko'rishga mo'ljallangan va tekis sathga bo'rttirib ishlangan haykallar. Tekislikka bo'rttirib ishlangan haykallar relyefli haykallar deb ataladi. Tangalar, orden va medallar ham relyefli haykaltaroshlik namunasi hisoblanadi.



**Relyefli haykal** — tekis yuzaga (devorga) bo'rttirib ishlangan haykal.




L.Ryabsev. «*Bahor keldi*».



## Relyefli haykal ishlash bosqichlari:

1



Plastilinni (loyni) taxtachaga  
ma'lum qalinlikda tekis  
yotqizish

2



Ishlanadigan haykal  
shaklini chizib  
olish

3



Ishlanadigan haykal  
shaklini kesish

4



Relyefga yakuniy  
ishlov berish



Baliqning relyefli haykalini ishlang.



1. Relyefli haykal deb nimaga aytildi?
2. Relyefli haykal ishlash bosqichlarini ayting.
3. Relyefli haykaltaroshlikka misollar keltiring.




1. Baliqning relyefli haykalini ishlashni oxiriga yetkazing.
- 2\*. Xo'rozning relyefli haykalini ishlang.



## 7


TO'RTBURCHAK SHAKLDA  
NAQSH ISHLASH

Buyumlar yo'lsimon, doira, kvadrat shakldagi naqshlar bilan bir qatorda to'rtburchak shakldagi naqshlar bilan ham bezatiladi. Ayniqsa, kashtachilikda ulardan keng foydalaniladi. Palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor kabi kashtachilik buyumlarida o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Shuningdek, to'rtburchak shakldagi naqshlar naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligida ham qo'llaniladi.



1. Yuqoridagi rasmda tasvirlangan san'at namunalari amaliy san'atning qaysi turlariga mansub?
2. Ularni bezashda qanday naqsh turlari va bezak gullaridan foydalanilgan?

## To‘rtburchak shaklli naqsh namunalari:



1. Yuqoridagi to‘rtburchak shaklli naqsh namunalarida qanday bezak gullari bor?







**Buyumlarni bezashda ko'proq quyidagi bezak gullari ishlatalidi:**




barg




bodom




uch barg




ko'p barg



garmdori



lolagul



oygul



paxtagul






bofta



marg'ula



To'rtburchak shaklli naqsh namunalari. Ulardan o'z ishingizda foydalaning.




Endi naqsh kompozitsiyasini ishlang.







**Naqshlardagi bezak gullarini turlicha joylash-tirish mumkin. «+» belgi bilan «oygul» o'rni, «-» belgi bilan «barg» o'rni belgilangan.**



1. Sariq rangli qog'oz varag'ini 8 qavat qilib buklab, «oygul» naqsh bezak gulini chizib oling.
2. Buklangan qog'ozni chizilgan gul bezagi bo'yicha qirqing. Natijada 8 ta «oygul» naqsh bezagi paydo bo'ladi.
3. Shunga o'xshash yashil rangli qog'ozdan 8 ta «barg» bezak gulini ham qirqib oling.
4. Yuqorida berilgan naqsh tarxlaridan birini tanlang. Qirqib olingan bezak gullarini qizil rangli qog'oz ustiga joylashtirib, to'rtburchakli naqsh ishlang.



1. Yuqoridagi buyumlarda qanday bezak gullari ishlataligan?

2. Ulardagi yo'lsimon naqshlarni toping.



1. Sinfda ishlangan to'rtburchak shaklidagi naqshni oxiriga yetkazing.

2\*. To'rtburchak shaklidagi gilam uchun naqsh ishlang.



## 8

## ORALIQ NAZORAT DARSI





### I. Test savollari:

1. Qaysi qatorda kontrast ranglar berilgan?



- A 
- B 
- D 
- E 

2. Ushbu bezak guli qaysi to'rtburchak naqshiga tegishli?







- A 
- B 
- D 
- E 

3. Qaysi ranglar juftligi kontrast emas?



4. Qaysi naqshning foni va bezak gulining rangi to'g'ri tanlanmagan?



5. Qaysi rasmda relyefli haykal tasvirlangan?




## II. Topshiriq.

«Hosil bayrami» mavzusida hikoya tuzing va shu hikoya asosida rasm ishlang.

## 9

## UZUM VA SHAFTOLI MEVALARIDAN TUZILGAN NATYURMORT ISHLASH



I.Kazarin. *Mevali natyurmort.*

O'zbekiston o'zining olmazor, shaftolizor, uzumzorlari bilan ham juda mashhur. Bu yurtda mevalarning yuzlab navlari yetishtiriladi. Uzumning «Hasayni», «Husayni», «Buvvaki», «Charos», «Kishmish», «Rizamat ota» kabi sanab adog'iga yetish qiyin bo'lgan navlari juda ko'p. Ular boshining katta-kichikligi, donasining mayda-yirikligi, ta'mining shirin yoki nordonligi va rangi bilan bir-biridan farqlanadi. Uzumlarning och yashil, to'q yashil, sariq, qora, och binafsha, qizil ranglilari bor. Shaftolilar ham tukli-tuksiz, oq, qizil-sariq aralash ranglari bilan bir-biridan farqlanadi.



1. Berilgan rasmda uzumlar qanday tasvirlangan?
2. Rasmda yana qanday mevalar tasvirlangan?
3. Ularning ranglari, hajmi va shakllarini ayting.



**«Uzum va shaftoli» mevalaridan tuzilgan natyurmortni ishlash bosqichlari:**

1



Tasvir o'lchamlarini belgilash


2



Tasvirni xomaki ishlash



3



Tasvirni qalamda yakunlash

4



Rasmni rang bilan yakunlash



1. Sinfda ishlangan natyurmortni yakunlash.
2. Shaftoli va uzumdan iborat ixtiyoriy natyurmort ishlang.



## II CHORAK



I.Razjivin. O'rmonda qish.

**Bu chorakda siz:**

- Kuz manzarasi rasmini ishlashni o'rganasiz;
- berilgan mavzu asosida haykal kompozitsiyasini ishlashni o'rganasiz;
- hikoya va ertak asosida illyustratsiyalar ishlaysiz;
- yo'lsimon shaklda murakkab naqsh ishlashni o'rganasiz.



10

**«TOG'DA KUZ»  
MAVZUSIDA RASM  
ISHLASH**

O'zbekiston – tabiat go'zal yurt. Ayniqsa, kuz faslida yurtimiz tabiat o'zgacha go'zallik kasb etadi. Shuning uchun ham manzarachi rassomlar kuz tasviriga oid ko'plab asarlar yaratganlar. Nikolay Karaxan, Rahim Ahmedov, Zokir Inog'omov, G'ofur Abdurahmonovlar shular jumlasidandir.



G'.Abdurahmonov. *Kuz*.

Rassom G'ofur Abdurahmonov kuz mavzusini tasvirlash uchun sariq, zarg'aldoq va qizil ranglardan o'rinli foydalan-gan.




1. G‘. Abdurahmonovning «Kuz» nomli asarini yax-shilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Asarda qaysi ranglardan foydalanilgan?
2. «Tog‘da kuz» mavzusida hikoya tuzing.

Rangtasvir kompozitsiyasi asosiy va yordamchi elementlardan (bo'laklardan) iborat.

Asosiy element odatda o‘rtada tasvirlanadi. Qolgan yordamchi elementlar asosiy element atrofiga joylashtiriladi.




Bu yerda asosiy element — kungaboqar, yordamchi elementlar — asalarilar. Agar kungaboqar olib tashlansa, kompozitsiya o‘z mazmunini yo‘qotadi.






1. Kuz fasli odatda qaysi ranglar bilan tasvirlanadi? Quyidagi rasmlarning qaysi birida kuz fasli tasvirlangan?
2. Kompozitsyaning qanday elementlari bor?
- 3- rasmdagi asosiy va yordamchi elementlarni aniqlang.

1



2



3




4





## «Tog'da kuz» mavzusida rasm ishlash bosqichlari:

1



Qog'oz yuzasida narsalarni  
umumiyl tarzda tasvirlash

2



Rasmda narsalar tasvirini  
aniqlashtirish

3



Rasmni och ranglarda bo'yash

4



Rasmagi ko'rinishlarning aniq  
tasvirini ishlash



«Tog'da kuz» mavzusida kompozitsiya ishlang.





1. Sinfda ishlangan «Tog'da kuz» mavzusidagi rasmni oxiriga yetkazing.
- 2\*. «Kuz» mavzusida mustaqil rasm ishlang.



**Zokir Inog'omov** (1919–1996) — O'zbekiston xalq rassomi. Uning asarlarida qahramonlarning qiyofalari joni, hayotiy ifodalanganligi bilan diqqatga sazovor. «Onalik», «Kuz», «Dalada nonushta», «Xirmonda», «Mosh hosili», «Orol» va boshqalar Inog'omovning mashhur asarlari hisoblanadi.



Z.Inog'omov. Choyga.

11

## «KECH KUZ» MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH

Oltin rangga burkangan kuz manzaralari har bir rassomni zavqlantiradi. Kuzgi ko'rinishlarni o'z asarlarida maroq bilan aks ettirgan rassomlar talaygina. Ular R.Ahmedov, G'.Abdurahmonov, H.Karaxan, N.Qo'ziboyev, Z.Inog'omov va boshqalardir.



O.Qozoqov. Qasrakda kuz.




1. Yuqoridagi rasmda quyoshli, ochiq havodagi kuz manzarasi tasvirlangan.
2. Kuz manzarasini diqqat bilan kuzating va uning mazmunini gapirib bering.





Avvalo daraxt, tog', bulut kabilarning rasmi qanday ishlanishini bilib oling. Masalan, daraxt rasmlari quyidagicha bosqichlarda ishlanadi:





Endi siz ham yuqorida qayd qilingan rassomlar kabi chiroyli manzara rasmini ishlang. Bunda darslikda berilgan kuz rasmlari va o'zingiz ko'rgan manzaralarni xotirlab rasm ishlang.




**«Kech kuz manzarasi» rasmini ishlash bosqichlari:**

1



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash

2



Tasvirni xomaki  
ishlash

3




Tasvirni qalamda  
yakunlash

4



Rasmni rang bilan  
yakunlash






R.Ahmedov. *Kuz tabiat manzarasi.*

4 – Tasviriy san'at, 3-sinf



1. Sinfda chizilgan «Kech kuz» rasmini guash yoki akvarelda bo'yang.
- 2\*. «Yomg'irli kun» mavzusida rasm ishlang.




N.G.Karaxan. Kuz.

**Karaxan Nikolay Grigoryevich** (1900 – 1970) – O'zbekiston xalq rassomi. Asarlarida o'zbek xalqining hayoti va mehnat faoliyati hamda tabiat manzaralarini aks ettirgan. U manzara janridagi «Nanay yo'li», «Yashnayotgan vodiy», «So'nggi nur», «Oltin kuz», «Kuz» va boshqa asarlari bilan mashhur.



12

YO'LSIMON SHAKLDA  
MURAKKAB NAQSH  
ISHLASH



1. Har bir naqshda ishlataligan bezak gullarini diqqat bilan kuzating va ularning nomini ayting.
2. Naqsh foni va bezak gullari ranglarini o'zaro taq qoslang.




Naqsh kompozitsiyasini hosil qilishda uning bezak gullari ma'lum me'yorlar asosida takrorlanishiga amal qiling. Bu naqqoshlikning asosiy qoidalaridan bo'lib, u «RITM» deb ataladi.

Naqsh bezak gullari va asosini tasvirlashda naqsh ustalari ko'pincha kontrast ranglardan foydalanadilar. Natijada, naqshlar jozibador va yorqin ko'rindi.



**Kontrast ranglar** — o'zaro qarama-qarshi ranglar.

Kontrast ranglar naqshlarda bezak gullari va fon rangining och to'qligi bilan aniqlanadi. Kontrast ranglar faqat och to'qligi asosida emas, rang tuslari (iliq, sovuq) orqali ham aniqlanadi.






Bu ranglar yonma-yon ishlatalganda bir-birini yorqinroq ko'rsatadi.



Kapalak qanotidagi kontrast ranglarni aniqlang.





Bu rasmlarning qaysinisida kontrast (och-to'q) ranglar qo'llanilgan?

Kontrast ranglarning biri ikkinchisining asosida (fonida) yorqinroq ko'rinishiga e'tibor bering.

Naqsh ishlaganda uning foni va bezak gullarini bo'yashda kontrast ranglardan foydalansangiz, ranglar yanada yorqinroq ko'rindi.

Bezak naqshlar axromatik ranglar bilan ham ishlanadi.



**Oq, kulrang va qora** ranglar — **axromatik** ranglar deb ataladi. Qolgan ranglar esa **xromatik** ranglar hisoblanadi.




Axromatik rangdagi fon xromatik rangdagi narsalarni yanada yorqinroq ko'rsatadi.




Oqqush qora fonda yorqin ko'rindadi. Sariq fonda esa unchalik yorqin ko'rinxaydi.



### Yo'lsimon naqshlar.



Bir xil rangdagi bezak gulli naqsh (oygul).



Ikki xil rangdagi bitta bezak gulli naqsh (oygul).

oygul


lola

oygul

lola

oygul

lola



Ikkita bezak gulli naqsh.




**Ritm** — naqshda bezak gullarining takrorlanib yoki almashinib kelishidir.



Ikkita bezak gulli yo'lsimon naqsh ishlang. Unda naqshning boshqa elementlaridan ham foydalanishga harakat qiling.



1. Quyidagi yo'lsimon naqshlarda qaysi bezak gullaridan qanday tartibda foydalilanilgan?



2. Naqsh asosi va bezak guli qanday ranglarga bo'yalgani ma'qul?



3. Kontrast ranglarni juft-jufti bilan sanab bering.
  4. Barg rasmini tasvirlash uchun qanday rangdagi asos (fon) tanlangani ma'qil?



- ## 5. Noma'lum ranglarni toping.

2)  +  =   
qizil ? zarg'aldoq

$$3) \quad ? + \text{ko'k} = \text{binafsha}$$

6. Quyidagi buyumlarning bezatilishida qanday naqshlardan foydalanilgan?





1. Ikkita bezak gulli naqshni akvarelda kontrast ranglarga bo'yang.
- 2\*. Ikkita bezak gulli va ranglari almashib keladigan naqsh ishlang.



Usta Yoqubjon Raufov  
(1888—1974)

Yoqubjon Raufov — naqqosh usta, O'zbekiston xalq rassomi. Naqqoshlik hunarini otasi usta Rauf Kalondan o'rgangan. Usta Yoqubjon Raufov respublikamizning qator shaharlaridagi jamoat binolarini bezashda boshchilik qilgan.



*Usta Yoqubjon Raufov ishlagan naqsh.*


13

## «TOSHBAQA BILAN CHAYON» MASALI ASOSIDA RASM ISHLASH

### Toshbaqa bilan chayon

Gulxaniyning «Toshbaqa bilan chayon»  
masalining qisqacha mazmuni

Toshbaqa bilan chayon safarga chiqdilar. Yo'lda ular katta daryoga duch keldilar. Toshbaqa suvdan chayonni olib o'tib yaxshilik qilmoqchi bo'ldi va chayonni ustiga mindirib oldi. Daryo o'rtasiga kelganda, chayon bejo harakat qila boshladi. Toshbaqa buning sababini so'raganida, u nayzasini toshbaqaga sanchib, sinab ko'rmoqchi ekanligini aytdi. «Chayonning ishi xoh do'st ko'ksiga va xoh dushman orqasiga nish urmoqdan iboratdir», — dedi. Toshbaqa esa: «Unda mening ham suv yuzida yurishimdan naf yo'q, mening ishim daryo javohirlarini tomosha qilishdir», — deb daryo tubiga sho'ng'idi.



Shunday qilib, toshbaqa javohir termoqqa, chayon esa jon bermoqqa ketdi. Yaxshilikka – yomonlik, deb shuni aytadilar.

### **Maqol**

Yaxshiga yondash, yomondan qoch.



1. «Toshbaqa bilan chayon» masalini o'qib chiqing.
2. Rasmda masalning qaysi lavhasi tasvirlangan?

O'zbekistonlik rassomlar xalq ertaklari, masallar va boshqa adabiy asarlarga ko'plab illyustratsiyalar ishlaganlar. Iskandar Ikromov, Telman Muhamedov, Abduqahhor Mahkamovlar shular jumlasidandir.




Endi siz masaldagi birorta ko'rinish yoki voqeanning illyustratsiyasini ishlang.




**Illyustratsiya** — badiiy asar mazmunini to'ldiruvchi yoki ko'rgazmali tasvirlovchi rasm.


### **Toshbaqa rasmini ishlash bosqichlari:**



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash



Tasvirni xomaki  
ishlash



Tasvirni qalamda  
yakunlash



Rasmni rang bilan  
yakunlash




### Chayon rasmini ishlash bosqichlari:



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash



Tasvirni xomaki  
ishlash



Tasvirni qalamda  
yakunlash



Rasmni rang bilan  
yakunlash






1. Illyustratsiya nima?
2. O'qish kitobingizdagi turli xil asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni aniqlang va ularni tahlil qiling.
1. «Toshbaqa bilan chayon» masaliga ishlangan illyustratsiyani akvarel bo'yoqlar bilan bo'yang.
- 2\*. O'zingiz sevgan birorta ertakka illyustratsiya ishlang.



Buyuk rassom Kamoliddin Behzod ham turli asarlarga illyustratsiyalar ishlagan.



Kamoliddin Behzod  
(1455-1536)

K.Behzod.  
*Masjid  
qurilishi.*



Kamoliddin Behzod – Sharqning buyuk musavviri. U Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa shoirlarning asarlariga illyustratsiyalar ishlagan. Kamoliddin Behzod «Sulton Husayn saroyida ziyofat», «Doro va otboqarlar», «Masjiddagi bahs», «Olimlar suhbati» va boshqa asarlari bilan mashhur.

14

**«NASRIDDIN AFANDI»  
ERTAGI ASOSIDA HAYKAL  
YASASH**



Yakov Shapiro. Xo'ja Nasriddin haykali.

O'zbek xalq og'zaki ijodida afsonaviy, xalqning sevimli va quvnoq qahramoni — Nasreddin Afandi obrazi muhim o'rinni tutadi. U hayotda yashab o'tmagan bo'lsa-da, xalqimiz uning haqida son-sanoqsiz latifalarini to'qigani to'qigan. Nasreddin Afandi qiyofasi tasviriy san'atga shu latifalar orqali kirib kelgan.



Rasmdagi haykalga qarab Nasreddin Afandi haqidada qanday tasavvur hosil qildingiz?



## Eshak haykalini yasash bosqichlari:

1



2



3



4



5



6





## Nasriddin Afandi haykalini yasash bosqichlari:

1



2



3



4



Nasriddin Afandi va uning eshagi ishtirokidagi bি  
ror lavhani ko'z oldingizga keltiring. Lavha asosida  
haykaltaroshlik kompozitsiyasini tuzing va unga nom  
qо'ying.

### Afandi mergan

Afandi: «Merganman», – deb maqtanib yurar edi. Bir kuni podsho uni ovga olib chiqdi. Bir joyda o'tlab yurgan kiyik uchrab qoldi. Afandi darrov kamondan o'q uzgan edi, xato ketdi. Afandi xijolat bo'lди va podshoga qarab:

— Bu sizning o'q otishingiz, — dedi.

Afandi yana o'q uzdi. U ham xato ketdi.

— Bu vaziringizning o'q otishi, — dedi.

Uchinchi marta o'q otgan edi, kiyikka tegdi.

— Mana bu mulla Nasriddinning o'q otishlari, — dedi Afandi.





Nasriddin Afandi latifalari asosida ishlangan haykallar.



1. Yuqoridagi haykallarning mazmuni va tuzilishi haqida so'zlab bering.
2. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi nima?



1. Sinfda ishlangan haykaltaroshlik kompozitsiyasini oxiriga yetkazing.
- 2\*. Biror latifa mazmunidan kelib chiqib, sinfda ishlangan haykallardan foydalanib, yangi kompozitsiya tuzing.



15

ORALIQ NAZORAT DARSI

I. Test savollari:

1. Quyida keltirilgan tasviriy va amaliy san'at asarlari turlarini aniqlang.

A




B



D



E



1. Applikatsiya;  
2. Haykaltaroshlik;  
3. Rangtasvir;  
4. Dekorativ kompozitsiya.  
2. Qish manzarasini tasvirlashda asosan qanday ranglar ishlatalidi?

A

Iliq ranglar;

B

Sovuq ranglar;

D

Asosiy ranglar;


E

Kontrast ranglar.




3. Qaysi naqshning ikki xil bezak guli bor?


A




B



D



E



4. Keltirilgan rasm tasviriy san'atning qaysi janriga tegishli?



A Haykaltaroshlik



B Grafika



D Rangtasvir

## II. Topshiriq.

«Qor yog'moqda» mavzusida rasm ishlang.



16

## YANGI YIL BAYRAMIGA DEVORIY GAZETA ISHLASH



Yangi yil bayrami barchaning eng sevimli bayrami. Eski yil tugashi va yangi yilning boshlanishi yer yuzida keng nishonlanadi. Bu bayramda barcha bir-birini tabriklab, yangi yil yaxshiliklarga mo'l bo'lishini tilaydi. Buning uchun maxsus tabriknomalar, devoriy gazetalar tayyorlanadi. Ularda qish fasli, qor, archa bayrami, qorbobo, qorqiz va turli ertak qahramonlari tasvirlanadi.






1. Rasmlarda nimalar aks ettirilgan?
2. Ularni tasvirlashda qaysi ranglardan ko'proq foy-dalanilgan?





## Devoriy gazeta eskizini ishlash bosqichlari:

1



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash

2



Tasvirni xomaki  
ishlash

3



Tasvirni qalamda  
yakunlash

4



Rasmni rang bilan  
yakunlash



1. Yangi yilga bag'ishlangan devoriy gazeta eskizini oxiriga yetkazing.
2. «Yangi yil tabriknomasi» eskizini ishlang.



### III CHORAK



G'.Abdurahmonov. *Bahor.*

#### **Bu chorakda siz:**

- berilgan mavzu asosida rasm va haykal ishlashni;
- minora uchun naqsh ishlashni;
- hayvonlar rasmini ishlashni o'rganasiz;
- natyurmort ishlashni davom ettirasiz;
- tabriknoma eskizini chizasiz.



17

**«QISHKI O'YINLAR»  
MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA  
ISHLASH**

Qish fasli bolalar uchun zavqli lahzalarga boy bo'ladi. Sovuq iqlim tufayli hosil bo'lgan yaxmalaklar, qorli yerlar bolalar uchun qiziqarli o'yin maydoniga aylanadi. Ular chang'i, konki uchadilar, qorbo'ron o'ynaydilar va qordan qorbobo haykalini yasaydilar. Quyidagi rasmida rassom shunday lah-zani tasvirlagan:




1. Bolalar qishki ta'tilda qanday o'yinlar o'ynaydilar?
2. Qish faslini tasvirlashda ko'proq qaysi ranglar ishlatilgan?



## Qorbobo rasmini ishslash bosqichlari:

1



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash

2



Tasvirni xomaki  
ishlash

3



Tasvirni qalamda  
yakunlash



4



Rasmni rang bilan  
yakunlash



Ko'rgan rasmlaringizdan foydalanib yangicha ko'rinishda «Qishki o'yinlar» deb nomlangan rasm ishlang.





1. «Qishki o'yinlar» mavzusidagi rasmni ishlashda qanday ranglardan foydalaniladi?



1. «Qishki o'yinlar» mavzusida rasm ishlashni oxiriga yetkazing.

2\*. «Chana uchish» mavzusida rasm ishlang.




**Tengdoshingiz ijodidan. Qish manzarasi.**



18

«SIRK SAHNASIDAGI  
TOMOSHA» MAVZUSIDA  
HAYKAL YASASH



1. Rasmlarda qaysi tomoshalarni ko'ryapsiz?
2. Sirkda yana qanday tomoshalar ko'rgansiz?





## Hayvon o'rgatuvchi haykalini ishlash bosqichlari:

1



2



3



4



5



6







### Yo'lbars haykalini ishlash bosqichlari:

1



2



3



4



Berilgan namunalardan foydalаниб, «Hayvon о'ргатувчи» deb nomlangan haykaltaroshlik kompozitsiyasini tuzing.





1. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi nima?
2. Yasalgan haykallardan yana qanday kompozitsiyalar tuzish mumkin.




1. «Hayvon o'rgatuvchi» haykaltaroshlik kompozitsiya sini oxiriga yetkazing.
- 2\*. «Hayvon o'rgatuvchi» mavzusida boshqa hay kaltaroshlik kompozitsiyasini ishlang.



19

## MINORA UCHUN GIRIXLI NAQSH ISHLASH


Ona yurtimiz qadimiy me'moriy obidalari bilan mashhur. Ularni bu qadar mo'jizakor bo'lishida naqshinkor bezaklarning o'rni beqiyos! Ularni yaratishda naqqoshlar bilan birga koshinkorlar ham ishtirok etganlar. Me'morchilikdagi naqshlar koshin parchalarini birlashtirish usuli bilan hosil qilinadi.



*Bibixonim masjidi.*



*Imom al-Buxoriy maqbarasi.*



*Sher dor madrasasi.*



1. Rasmlarda tasvirlangan me'moriy yodgorliklar haqida nimalarni bilasiz?
2. Ularga badiiy bezak berishda qanday naqshlardan foydalilanigan?



**Me'morlik** — bino va inshootlarni loyihalash  
va qurish san'ati.

Me'morlik asarlari qatoriga turli-tuman binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, shaharlar, ulardagi monumentlar kiradi.

### Zamonaviy me'morlik san'ati namunalari.



*Temuriylar tarixi davlat muzeyi.*



*Toshkent Islom universitetining binosi.*



Ushbu qadimiy me'moriy yodgorlik namunalaridagi biror naqshdan nusxa oling.




1. Yurtimizda qanday me'moriy obidalar bor? Ular haqida so'zlab bering.
2. Qadimda me'morlar ko'proq naqqoshlikning qaysi turlaridan foydalanganlar?




## Girixli naqsh ishlash bosqichlari:

1




Tasvir o'Ichamlarini  
belgilash

2




Tasvirni xomaki  
ishlash

3



Tasvirni qalamda  
yakunlash

4




Rasmni rang bilan  
yakunlash





1. Sinfda ishlangan qadimiy naqsh nusxasini ishlashni oxiriga yetkazing va uni bo'yang.
- 2\*. Yurtimizdagи biror qadimiy obida rasmini ishlang.




Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosining gumbaz osti shiftiga ishlangan naqsh

**Anvar Ilhomov** (1946- yilda tug'ilgan) — naqqosh, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. U «Xalqlar do'stligi», «Turkiston» saroylari, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy majmularini bezashda ishtirok etgan.

20

## XONAKI GULLARGA QARAB RASM ISHLASH



Maktablarda, xonadonlarda, ishxonalarda, bog'larda turlituman gullar o'stiriladi. Bu gullar dala gullaridan farqlanib, ularni alohida parvarishlash kerak bo'ladi. Xonaki gullar barglarining tuzilishi, katta-kichikligi, gullarining rangi, hidi va hatto qaysi dardga shifoligi bilan ham bir-biridan farqlanadi. Xonaki gullarni bahor va yoz oylarida tomorqalarga ekish ham mumkin. Biroq kuzda ularni albatta maxsus gul tuvaklariga ko'chirib o'tkazish kerak bo'ladi. Gul tuvaklaridagi xonaki gullar havoni tozalab sof havodan nafas olishimizga yordamlashadi. Undan tashqari xonalarimiz chiroyiga chiroy qo'shib, qishda ham gul ochib ko'zlarni quvontiradi.




1. Xonaki gullarning qanday turlarini bilasiz?
2. Sizning uyingizda ham xonaki gullar bormi?




Rasmida berilgan xonaki gullarni yaxshilab kuzating va ular yordamida birorta xonaki gul rasmini ishlang.



### Xonaki gullar rasmini ishlash bosqichlari:



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash



Tasvirni xomaki  
ishlash





Tasvirni qalamda  
yakunlash



Rasmni rang bilan  
yakunlash





1. Sinfda ishlangan «Xonaki gul» rasmini oxiriga yetkazing.
2. «Xonamdagি gullar» mavzusida bir nechta tuvakdagi gullar rasmini ishlang.



21

**«TENNISCHI»  
MAVZUSIDA RASM ISHLASH**

**O'zbekistonda sport**

O'zbekistonda sportga katta e'tibor qaratilgan. Sportning maqsadi kishilarning sog'lig'ini mustahkamlash va umumiyligi jismoniy rivojlantirish hisoblanadi. Tennis mamlakatimizda ommalashgan sport turlaridan biri bo'lib, unga qiziqish yildan yilga ortib bormoqda.



O'zbekistonlik sportchilar orasida tennischilarning o'z o'rni bor. Denis Istomin, Farrux Do'stov, Iroda To'laganova, Nigina Abduraimova, Vlada Yaxshibarova kabi tennischilarimiz xalqaro arenalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qilib kelmoqdalar.




1. Tennis sporti haqida nimalar bilasiz?
2. Siz qaysi sport turi bilan shug'ullanasisiz?
3. Sport turlaridan qaysilari sizga yoqadi va nima uchun?
4. Endi tennis o'yinidan bironta ko'rinishni tanlang va shu asosida rasm ishlang.



### Tennischi rasmini ishslash bosqichlari:



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash




Tasvirni xomaki  
ishslash





Tasvirni qalamda  
yakunlash



Rasmni rang bilan  
yakunlash



Yuqoridagi rasmdan foydalanib, tennis o'yini haqidagi kompozitsiya ishlang.




1. Mamlakatimiz sharafini xalqaro tennis musobaqalarida munosib himoya qilgan qaysi sportchilarni bilasiz?
1. Sinfda ishlangan tennischi rasmini bo'yang.
- 2\*. O'zingiz yoqtirgan birorta sport musobaqasi rasmini ishlang.



22

## «HAYVONOT BOG'IDA» MAVZUSIDA RASM ISHLASH






## Fil rasmini ishlash bosqichlari:


Hayvon rasmini ishlayotganingizda uning tanasi qanday qismlardan tuzilganligini va bu qismlar qanday shaklga ega ekanligini aniqlash lozim.

Masalan, filning tanasini, to'rtta oyoq, kalla, xartum, dum, tishlari va quloqlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.


Filning eng katta qismi — bu uning tanasi bo'lib, u oval shaklda. Uning boshi va quloqlari deyarli bir xil kattalikda bo'lib, ular ham oval shaklda.




Tasvir o'lchamlarini  
belgilash



Tasvirni xomaki  
ishlash



Tasvirni qalamda  
yakunlash




Rasmni rang bilan  
yakunlash

Hayvonot bog'idaqay ayrim hayvonlar tuzilishiga ko'ra o'xshab ketadi. Masalan, zebra otga o'xshaydi.




A.Aliulov. Yorug'likka.


**Ot rasmini ishslash bosqichlari:**




Tasvir o'lchamlarini belgilash



Tasvirni xomaki ishslash




Tasvirni qalamda yakunlash



Rasmni rang bilan yakunlash




### Baliq rasmini ishlash bosqichlari:




1

Tasvir o'lchamlarini  
belgilash




2

Tasvirni xomaki  
ishlash



3

Tasvirni qalamda  
yakunlash




4

Rasmni rang bilan  
yakunlash



## Quyon rasmini ishlash bosqichlari:


1



2



3



4



«Hayvonot bog'ida» mavzusida rasm ishlang.  
Bu jarayonda yuqoridagi rasmlardan hamda ta-savvuringizdagi variantlardan foydalanishga harakat qiling.



1. Sinfda ishlangan «Hayvonot bog'ida» mavzusidagi rasmni oxiriga yetkazing.
- 2\*. «Hayvonot bog'ida» mavzusida boshqa hayvonlar ishtirokida kompozitsiya ishlang.



23

«DORBOZ BOLA» MAVZUSIDA  
KOMPOZITSIYA ISHLASH




A.Temurov. *Samarqand dorbozları*.



1. Yuqoridagi rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Dor o'yinlarini tomosha qilganmisiz? Taassu-rotlaringizni so'zlab bering.


## Dorbozlik

Dorbozlik baland dor ustida tomosha ko'rsatish san'ati hisoblanadi. U qadim tarixga ega. O'zbek dorbozlari 25 – 30 metr balandlikdagi ustunlarga tortilgan arqon ustida langarcho'p bilan o'yin ko'rsatadilar. Dorbozlar yugurish, sakrash, oyoqlarga pichoq yoki patnis bog'lagan holda, shuningdek, ko'zni bog'lab, boshlariga xaltacha kiyib arqon ustida mashqlar bajaradilar. Dor o'yinlari, dor tagida raqqoslarning o'yinlari, qiziqchilar, askiyachilarning chiqishlari hamda an'anaviy sirk turlaridan simdor, yog'och oyoq, nayrangbozlik, besuyak, o'rgatilgan ayiq, ilon, maymun, ot o'yinlari bilan birga olib boriladi.







## Dorboz bola rasmini ishlash bosqichlari:




Tasvir o'lcchamlarini  
belgilash



Tasvirni xomaki  
ishlash



Tasvirni qalamda  
yakunlash



Rasmni rang bilan  
yakunlash





«Dorboz bola» mavzusida rasm ishlang.



Dorbozlik san'ati haqida yana nimalarni bilasiz?



1. Sinfda boshlangan «Dorboz bola» mavzusida rasm ishlashni oxiriga yetkazing.
- 2\*. «Dorboz bola» deb nomlangan haykallar kompozitsiyasini ishlang.



24

## «GULDONDAGI LOLALAR» MAVZUSIDA NATYURMORT ISHLASH



O'zbekistonning turfa gullari orasida lola guli nafisligi bilan ajralib turadi. Bahor kelib, qir-adirlarda lolalar ochilishi bilan odamlar lola sayliga oshiqadilar. Lolaning yashil bandi uzun va uchli barglar bilan o'rалган. Guli esa tepa qismi jimgimador bo'lgan uzunchoqroq shakildagi gul yaproqlaridan iborat. Lolalarning qizil, binafsha, pushti, oq, sariq, hatto qora rangdagilarini ham uchratish mumkin.



1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Siz bu gullarning yana qanday ranglarini ko'rgansiz?
3. Gullar qanday xususiyatlariga qarab bir-biridan farqlanadi?





## Lola guli rasmini ishlash bosqichlari.

1



Tasvir o'lchamlarini  
belgilash

2




Tasvirni xomaki  
ishlash

3



Tasvirni qalamda  
yakunlash

4



Rasmni rang bilan  
yakunlash



«Guldondagi lolalar» natyurmortini ishlang. Ishni boshlashdan avval guldon, lolalar shakli, tuzilishi va o'lchamlariga ahamiyat bering.



Rassomlar tomonidan ishlangan lolalar rasmiga qarab ularning shakllari, ranglari va hajmlari haqidagi so'zlab bering.



1. Sinfda ishlagan «Guldondagi lolalar» nihoyasiga yetkazing.
2. «Bahor gullari» mavzusida rasm ishlang.



25

ORALIQ NAZORAT DARSI




I. Test savollari:


1. Binafsha rangni ko'rsating.




2. Qaysi rasm sovuq ranglarda ishlangan?




### 3. Kim qaysi rasmni ishlagan?



A



B



D



4. Quyidagi rasm tasviriy san'atning qaysi turiga tegishli?



M.Toshmurodov. *Munavvar.*



Rangtasvir;



Haykaltaroshlik;



Naqqoshlik;



Grafika.

5. Rang nomining qaysi rasmga tegishli ekanligini aniqlang.



A) Kulrang.



B) Binafsha.



D) Qizil.



E) Zarg'aldoq.

## II. Topshiriq.

«Navro'zingiz muborak bo'lzin!» tabriknomasining taqdimotida ishtirok etib, chizgan rasmingizni unga qo'ying.



26

## NAVRO'Z BAYRAMIGA TABRIKNOMA ESKIZINI ISHLASH



1. Rasmga nom qo'ying va u bo'yicha hikoya tuzing.
2. Navro'zni nima sababdan bayram qilamiz?



Navro'z kuni bir-biridan xabar olish va bir-birini tabriklash xalqimizga xos fazilat. Bayram arafasida ko'chalarda katta qilib ishlangan tabriknomalarni uchratish mumkin.



Shuningdek, quyidagi tabrik so'zlari bitilgan tabriknomalarni yaqinlaringizdan olishingiz yoki ularga berishingiz mumkin:





Namuna asosida «Navro'zingiz muborak bo'lisin!» tabriknomasining rasmini chizing.




1. Navro'z bayrami ramzlari sifatida nimalarni olish mumkin?



1. «Navro'zingiz muborak bo'lisin!» tabriknomasini akvarelda bo'yang.
- 2\*. «Navro'z» deb nomlangan dekorativ kompozitsiya ishlang.



## IV CHORAK



G'.Abdurahmonov

### Bu chorakda siz:

- tabiat manzarasi rasmini ishlashni davom ettirasiz;
- doiraviy shaklda naqsh ishlashni o'rganasiz;
- qadimiylar hunarmandchilik turlaridan – kulolchilik namunalari bilan tanishasiz;
- haykaltaroshlik bo'yicha kompozitsiya ishlashni davom ettirasiz.



27

## «GULZORDAGI KAPALAKLAR» MAVZUSIDA RASM ISHLASH

Bog'larda, chamanzorlarda rang-barang gullar ochilgach, bu yerlar turli qushlar, asalarilar va chiroyli kapalaklar bilan yanada go'zallashadi.

Kapalaklarning oq, pushti, ko'k, sariq va boshqa ko'zni oluvchi tusdagilari va ikki-uch ranglarni o'zida jamlagan turlari bor.



Rasmlarni kuzating. Kapalaklarning ikki juft qanotlari bir-biriga juda o'xshashligiga ahamiyat bering. Ularning



tanasi ingichka va uzunchoq, mo'ylovlari juda nozik, ko'zlari esa mittigina bo'ladi.



1. Rasmlardagi kapalaklar qaysi ranglarda tasvirlangan?
2. Rasmda kapalaklardan tashqari nimalar tasvirlangan?




«Gulzordagi kapalaklar» mavzusida rasm ishlang.






## «Gulzordagi kapalaklar» mavzusidagi rasmni ish-lash bosqichlari:

1



Tasvir o'lchamlarini belgilash

2



Tasvirni xomaki ishlash

3



Tasvirni qalamda yakunlash

4



Rasmni rang bilan yakunlash



1. Sinfda ishlangan «Gulzordagi kapalaklar» rasmini ishlashni oxiriga yetkazing.
2. «Hasharotlar» mavzusida rasm ishlang.



28

«KOINOTGA SAYOHAT»  
MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA  
ISHLASH



V.Vasilenko. Yuriy Gagarin.

Rassomlar ba'zida xayoliy to'qima (fantaziya)lari asosida ham asar yaratadilar. Koinot mavzusi shunday mavzular qatoriga kiradi.




1. Yuqoridagi rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Bu rasm nima asosida ishlangan?






## Raketa rasmini ishlash bosqichlari:

1




2




Tasvir o'lchamlarini  
belgilash

Tasvirni xomaki  
ishlash

3



4




Tasvirni qalamda  
yakunlash

Rasmni rang bilan  
yakunlash



## Kosmonavt rasmini ishlash bosqichlari:

1




Tasvir o'lchamlarini  
belgilash

2



Tasvirni xomaki  
ishlash

3



Tasvirni qalamda  
yakunlash

4



Rasmni rang bilan  
yakunlash



1. Fantaziya nima?
2. Naturaga qarab rasm ishlash osonmi yoki fantaziya asosida rasm ishlashmi? Nega?




1. Sinfda boshlangan «Koinotga sayohat» mavzusidagi rasmni yakunlang.
- 2\*. «O'zga sayyoraliklar» deb nomlangan haykal-taroshlik kompozitsiyasini ishlang.



29

**«OQSHOM» MAVZUSIDA  
RASM ISHLASH**



Oqshom tabiatning eng go'zal ko'rinishlaridan biridir. Bu vaqtida quyosh botib, tog' cho'qqilarini, osmonni, bulutlarni zarrin nurlari bilan yoritadi. Osmon turli ranglarda jilolanib, qizg'ish, sarg'ish, ko'kish ranglar bilan aralashib, go'zal ko'rinishga ega bo'ladi. Osmonda ham bulutlarda ham qu-yoshning sarg'ish-qizg'ish nurlari shu'lalanib turadi.



1. Fotosuratlarda kunning qaysi pallalari tasvirlangan? Ular bir-biridan qanday farqlanadi?



Rustam Xudayberganovning «Oqshom» nomli asarini kuzating va uning mazmunini so'zlab bering.



Rustam Xudayberganov. *Oqshom*.

Ma'lumki, ranglar yorug'lilik nuri toyvanishidan hosil bo'ladi. Shu sabab narsalarning rangi quyosh charaqlab turgan kunduz kuni va quyosh botayotgan oqshom paytida turlicha bo'ladi.

Rassomlar bir xil manzarani kunning turli pallalarda chizishni, ranglarni bor jilosida tasvirlashni xush ko'radilar.



Quyidagi ranglar ichidan yangi o'rganilgan rang nomlarini aniqlang.



Qizil



Malla



Ko'k



Binafsha



Qirmizi



Jigarrang



Yashil



Zarg'aldoq



Pushti



Sariq



Havorang



Qo'ng'ir



Siyohrang



Alvonrang



Moviy



Oq



Qora






Kulrang





Quyidagi rasmlardan qaysi birida oqshom tas-virlangan? Rasmlarda qanday ranglardan foy-dalanilganiga e'tibor bering.



Taassurotlaringiz asosida «Oqshom» mavzusida rasm ishlang. Bunda siz quyosh nurlarining kamayishi natijasida shakllar, ranglar umumiylashib borishini e'tiborga oling.


- 1. 122- betdagи rasmlar haqida hikoya qilib bering.
- 2. Rasmlarda bunday ranglar ishlatalishi sabablarini ayting.



- 1. «Oqshom» mavzusida rasm ishlashni oxiriga yetkazing.
- 2\*. 121- betda keltirilgan ranglarni eslab qoling va ularning nomlarini yodlang.



B.Ro'zmetovning «Polvon kanal» asarini kuzating va uni ta'riflab bering.



B.Ro'zmetov. *Polvon kanal*.



30

**«TULKI BILAN TURNA»  
ERTAGI ASOSIDA  
HAYKAL YASASH**



**«Tulki va turna» ertagidan parcha**

Bir kuni turna tulkini ziyofatga chaqiribdi. Tulki turnanikiga kelibdi. Turna suyuq ovqat qilibdi, ko'zaga quyib o'rtaga qo'yibdi:

— Qani, Tulkivoy, oling, — deb tulkini ovqatga taklif qilibdi.




1. Ertakning to'liq mazmunini aytib bering.
2. Yuqoridagi rasmda qanday voqeа tasvirlangan?
3. Nima uchun turna va tulki bir-biriga qo'ygan ovqatlarini yeya olmaydilar?



### Tulki haykalini ishlash bosqichlari:

1



2




3



### Turna haykalini ishlash bosqichlari:

1



2



3



Yuqoridagi rasmlarda ko'rsatilgan tartibda «Tulki va turna» ertagi asosida haykalchalar ishlang. Ishlangan haykalchalaringizni haykaltaroshlik kompozitsiyasi ko'rinishida joylashtiring.





1. Yuqoridagi kompozitsiyada nimalar tasvirlangan?
2. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi nima?



1. Tulki va turna haykallarini turli holatlarda joylashtirib, ertakdagi har xil vaziyatlarni tasvirlang va ularni nomlang.
- 2\*. «Tulki bilan turna» ertagi asosida relyefli haykal ishlang.



## 31

**KULOLCHILIK. LAGAN  
UCHUN NAQSH ISHLASH**

Kulolchilik hunarmandchilikning loydan piyola, kosa, ko'za, lagan, xum, o'yinchoqlar kabi turli buyumlar tayyorlaydigan turidir. Kulolchilikda asosiy quroq kulolchilik charxi hisoblanadi. Buyumlar quritilib, xumdonda pishiriladi. Kulolchilik respublikamizning Farg'ona, Buxoro, Samarcand, Xorazm va Toshkent viloyatlarida keng rivojlangan. Xalq ustalari ko'plab idishlar tayyorlash bilan birga ularni yuksak did bilan bezaydilar. Kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, ko'rksam naqshlari bilan diqqatni tortadi. Bu san'at turi avloddan avlodga o'tib kelmoqda.



1



2

-  1. Yuqoridagi buyumlarda tasvirlangan doira shaklidagi naqshlarni ishlashda qanday bezak gullaridan foydalilanilgan?
2. Doira shaklidagi naqshlarda simmetriya bormi? Ularni ko'rsating.




Naqsh ishlashga kirishishdan avval naqsh kompozitsiyasi, bezak gullarini aniqlab oling. Rasm qog'oz yuzasining qayerida, qanday o'lchamda tasvirlanishini belgilang.




### Lagan uchun naqsh ishlash bosqichlari:

1



2




Tarh olinadi

3



4



Bezak gullari chiziladi

5



6






Bo'yaladi





Bezak gullari bo'yicha lagan uchun naqsh ishlang.



1. Doiraviy naqsh ishlash bosqichlarini aytib bering.
2. Doiraviy naqshda kontrast ranglarning ishlatalishini tushuntiring.



## Loydan sopol buyum yasash bosqichlari:

1



Maxsus tuproqdan  
loy tayyorlanadi

2



Loyga shakl  
beriladi

3



Buyumga rang bezak  
beriladi

4



Maxsus elektr pechda quritiladi



O'qituvchi tomonidan tanlangan uy-ro'zg'or buyumni loydan yasang. Buyumga qanday bezaklar bilan ishlov berishingizni qog'ozda xomaki chizing.



1. Sopol buyumlarni yasash bosqichlarini aytib bering.
2. Uyingizda qanday sopol buyumlardan foydalanasiz? Ularning sifati va afzalliklari nimada?

### **Abdurahim Muxtorov –**

kulol, mayda shakllar ustasi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi. «Choyxonachi», «Beshtik», «Xo'ja Nasriddin», «Tuya va bo'taloq» va boshqa milliy o'yinchoqlar yaratgan.




1. Sinfda ishlagan naqshingizni nihoyasiga yetkazing.
2. Gulsiz laganchaga guashda yoki akvarelda naqsh ishlang.



32

## NATYURMORT RASMINI ISHLASH



Yuqoridagi natyurmortni kuzating va quyidagi savollarga javob bering:



1. Nega bu rasm natyurmort deb nomlanadi?
2. Natyurmortda nimalar tasvirlangan?
3. Nima sababdan bu natyurmort tik holatdagi qo'gzda emas, balki yotiq holatda tasvirlangan?
4. Tasvirlangan uchta narsadan qaysi birining:
  - a) bo'yи eniga nisbatan uzun?
  - b) bo'yи eniga nisbatan qisqa?
  - c) bo'yи va eni taxminan teng?
5. Bu narsalarning qaysi biri dumaloq shaklda?




6. Qaysi narsa oldinda? Qaysi biri orqada turibdi? Buni nimalardan bildingiz?
7. Narsalarga yorug'lik nuri qaysi tomondan tush-yapti? Buni qanday aniqladingiz?
8. Narsalarni tasvirlashda qaysi ranglardan foydalanilgan?
9. Har bir narsaning yorug' va soya joylarini aniqlang. Ularni tasvirlashda ranglardan qanday foydalanilgan?
10. Narsalar nimaning ustida turibdi? Ularning orqasida nima turibdi va u qanday tasvirlangan?




### Natyurmort ishlash bosqichlari:


Dastlab, naturadan chizish talab etilgan narsalar diqqat bilan kuzatiladi. Kuzatish davomida yuqorida keltirilgan 10 ta savolga javob topiladi va shundan so'ng rasm ishlashga kirishiladi.



Tasvirni qog'ozga joylashtirish



Qalamda xomaki ishlash



3

Tasvirni qalamda  
yakunlash



4

Bo'yash (bo'yash, oldingi  
darslarda berilgandek, 3- bos-  
qichda amalga oshiriladi)



Stol ustiga joylashtirilgan olma va ko'zadan iborat natyurmortni ishlang. Natyurmort ishlashda undagi olma va ko'zaning shakli, o'zaro nisbatlariga e'tibor qarating. Rasmni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtiring.



1. Ko'zaning balandligi olma balandligidan qancha katta?
2. Ko'zaning eni olma enidan qancha katta?
3. Natyurmortga yorug'lik qaysi tomondan tushmoqda?
4. Natyurmortda qanday ranglar bor?
  1. «Olma va ko'za» natyurmortini ishlashni oxiriga yetkazing.
  - 2\*. O'zingizga yoqqan 2–3 ta narsani qulay holda joylashtirib natyurmort ishlang.



33


## YAKUNIY NAZORAT DARSI

**I. Test savollari:**


1. Asosiy ranglar qaysi qatorda berilgan?



2. Qaysi naqshning ikkita bezak guli bor?



3. Qaysi ranglar juftligi kontrast emas?



4. Cho'l manzarasini tasvirlashda asosan qaysi ranglardan foydalilanildi?



- A Iliq ranglar.  
D Sovuq ranglar.

- B Asosiy ranglar.  
E Kontrast ranglar.

5. Qaysi rasmda relyefli haykal tasvirlangan?



6. Quyida keltirilgan rasmlarni kuzatib, har birining nomini ayting.





1. Applikatsiya.

2. Manzara.





3. Haykal.

4. To'rtburchak naqsh.

7. Qaysi naqshning foni va bezak guli rangi to'g'ri tamlanmagan?



8. Rasm qaysi ertak asosida ishlanganligini aniqlang.



9. Qaysi rasm faqat iliq ranglarda ishlangan?




## II. Topshiriq.

Qadrli o'quvchi, yil yakunida o'l kamiz tabiatiga haqida rasm ishlang. Uni bajarish uchun 3- sinf davomida «Tasviriy san'at» darslarida olgan barcha bilim, mahoratingizni ishga soling.

34

«YOZ O'TMOQDA SOZ»  
MAVZUSIDA RASM ISHLASH



1. Rasm asosida tengdoshlaringiz yozgi ta'tilni qanday o'tkazgani haqida hikoya qilib bering.
2. Rassom tog' manzarasini ishlashda qaysi ranglardan foydalangan?

Yoz faslida quyosh charaqlab, nurlarini atrofga kun bo'yi taratib turgani sababli ob-havo juda issiq bo'ladi.

Yoz oylarida, odatda, odamlar soya-salqin joylar, bog'lar va suv havzalariga yaqin tog'li maskanlarga borishni yaxshi ko'radilar. Quyidagi rasmdan ishlaydigan rasmingizda foydalanishingiz mumkin.



Narsalar kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ularning o'lchamlari kichiklashib ko'rindi, ranglari esa xiralashib boradi.




Yozgi taassurotlaringiz va kuzatgan rasmlaringiz asosida «Yoz o'tdi soz» mavzusida tabiat manzarasi tasvirlangan rasm ishlang.



**«Yoz o'tdi soz» mavzusidagi rasmni ishlash bosqichlari:**

1




2



Tasvirni qog'ozga  
joylashtirish

Qalamda xomaki  
ishlash

3



4



Tasvirni qalamda  
yakunlash

Tasvirni bo'yash



1. Sinfda ishlangan «Yoz o'tdi soz» mavzusidagi rasmni bo'yang.

2\*. «Bizning bog'» mavzusida rasm ishlang.



# M U N D A R I J A

## I CHORAK

1.	«Mustaqil ona Vatan» mavzusida rasm ishlash .....	4
2.	Atlas matosidan naqsh namunasini ko'chirish .....	8
3.	2- 3 mevalardan tuzilgan oddiy natyurmort ishlash..	13
4.	«Poliz ekinlari» mavzusida natyurmort ishlash.....	17
5.	«Oltin tarvuz» ertagi asosida rasm ishlash .....	20
6.	Haykaltaroshlik. Baliq relyefini yasash .....	25
7.	To'rtburchak shaklda naqsh ishlash.....	29
8.	Oraliq nazorat darsi.....	35
9.	Uzum va shaftoli mevalaridan tuzilgan natyurmort ishlash .....	37

## II CHORAK

10.	«Tog'da kuz» mavzusida rasm ishlash.....	41
11.	«Kech kuz» mavzusida kompozitsiya ishlash .....	46
12.	Yo'lsimon shaklda murakkab naqsh ishlash.....	51
13.	«Toshbaqa bilan chayon» masali asosida rasm ishlash .....	58
14.	«Nasriddin Afandi» ertagi asosida haykal yasash...	62
15.	Oraliq nazorat darsi .....	66
16.	Yangi yil bayramiga devoriy gazeta ishlash.....	68

## III CHORAK

17.	«Qishki o'yinlar» mavzusida kompozitsiya ishlash .....	72
-----	---	----



<b>18.</b> «Sirk sahnasi dagi tomosha» mavzusida haykal yasash .....	76
<b>19.</b> Minora uchun girixli naqsh ishlash.....	82
<b>20.</b> Xonaki gullarga qarab rasm ishlash .....	87
<b>21.</b> «Tennischi» mavzusida rasm ishlash.....	90
<b>22.</b> «Hayvonot bog'ida» mavzusida rasm ishlash.....	93
<b>23.</b> «Dorboz bola» mavzusida kompozitsiya ishlash..	98
<b>24.</b> «Guldondagi lolalar» mavzusida natyurmort ishlash .....	102
<b>25.</b> Oraliq nazorat darsi .....	105
<b>26.</b> Navro'z bayramiga tabriknoma eskizini ishlasi....	108

#### **IV CHORAK**

<b>27.</b> «Gulzordagi kapalaklar» mavzusida rasm ishlash .....	112
<b>28.</b> «Koinotga sayohat» mavzusida kompozitsiya ishlash .....	115
<b>29.</b> «Oqshom» mavzusida rasm ishlash.....	119
<b>30.</b> «Tulki bilan turna» ertagi asosida haykal yasash.....	124
<b>31.</b> Kulolchilik. Lagan uchun naqsh ishlash.....	127
<b>32.</b> Natyurmort rasmini ishlash.....	132
<b>33.</b> Yakuniy nazorat darsi.....	135
<b>34.</b> «Yoz o'tmoqda soz» mavzusida rasm ishlash...	138



MUYASSAR ISOQOVA, RAHIM HASANOV,  
BAHODIR HAYDAROV, ASQARALI SULAYMONOV,  
SAODAT JUMANIYOZOVA, BOBIR AZIMOV

## TASVIRIY SAN'AT

Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining  
3- sinfi uchun darslik

Toshkent – «Yangiyul Poligraph Service» – 2019  
Nashriyot litsenziyasi AI 185 10.05.2011 y.

Muharrir — Sh. Dadashova

Texnik muharrir — R. Xudayberganov

Rassom — B. Abdirov

Haykaltaroshlar — A. Rahimov, J. Abduvahabov

Sahifalovchi — D. Abduvaitov

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 10.07.2019 й. Bichimi 70x901/16.  
«Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi. Sharli bosma tabog'i  
10,5. Nashr bosma tabog'i Nusxasi 493397. Buyurtma № 47-19.

Sharhnomalar № 19

«Yangiyul Poligraph Service» MCHJ bosmaxonasida bosildi.

112001, Toshkent vil, Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.

UO'K 741(075.2)

KBK 85.1ya71

Tasviriy san'at: Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining  
3- sinfi, uchun, darslik / M. Isoqova, R. Hasanov, B. Haydarov,  
A. Sulaymonov, S. Jumaniyozova, B. Azimov. — Yangiyo'l.: «Yangiyul  
Poligraph Service», 2019 – 144 b.

I. Isoqova, Muyassar.

ISBN 978-9943-5710-7-5

UO'K 741(075.2)

KBK 85.1ya71



## Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.